



ESG BO'YICHA XORIJIY ILG'OR TAJRIBALARNI SUG'URTA KOMPANIYALARIDA QO'LLASHDA JAHON TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Saliyeva Zuhra Davronbek qizi

Xususiy lashtirish va davlat aktivlarini

boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi

Mustaqil izlanuvchisi(PhD)

Telefon: +998943192411

Email: saliyevazuhra2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini sug'urta kompaniyalarida tatbiq etish masalalari o'rganilgan. Ishning maqsadi – jahon tajribasini tahlil qilish orqali mahalliy sug'urta kompaniyalarida ESG mexanizmlarini samarali joriy etishning yo'llarini aniqlashdir. Tezis doirasida xalqaro ESG standartlari, barqarorlik hisobotlari, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv tizimlarini sug'urta sohasiga moslashtirish tajribalari o'rganilgan. T, Jahon tajribasini o'rganish va uni mahalliy sug'urta kompaniyalariga moslashtirish orqali risklarni boshqarish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mijozlar bilan ishonchli aloqalarni rivojlantirish mumkin.

Kalit so'zlar: ESG, sug'urta kompaniyasi, jahon tajribasi, barqaror rivojlanish, korporativ boshqaruv, ijtimoiy mas'uliyat.

Kirish. Rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Germaniya, Yaponiya va Fransiyada ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga integratsiyalashning samarali modellariga ega. Bu davlatlarda kompaniyalar GRI (Global Reporting Initiative), SASB (Sustainability Accounting Standards Board) va TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) kabi xalqaro hisobot standartlari orqali ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlarini tizimli baholamoqda.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat masalalari so'nggi yillarda tobora dolzarb bo'lmoqda. Jahon miqyosida iqtisodiy va ekologik risklar ortib borishi, mijozlar va investorlar talablarining o'sishi sug'urta sohasida ESG (Environmental,



Social, Governance) tamoyillarini tatbiq etishning muhimligini oshirdi. ESG tamoyillari kompaniyalarning nafaqat moliyaviy barqarorligini, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini ham oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, sug'urta kompaniyalarida ESG tizimini samarali joriy etish – nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalarida ESG tamoyillari asosida boshqaruv tizimi esa xorijiy ilg'or tajribalarni mahalliy sug'urta kompaniyalarida ESG tamoyillarini qo'llashning samarali yo'llari hisoblanadi. Jahon ESG tajribasini o'rganish orqali mahalliy sug'urta kompaniyalarida ESG mexanizmlarini tatbiq etishning eng samarali yo'llarini aniqlash mumkin. Mavzu doirasida bir qator vazifalarni ko'rish mumkin: birinchidan, ESG tamoyillari va ularning sug'urta kompaniyalaridagi ahamiyatini tahlil qilish; ikkinchidan, xorijiy ilg'or ESG amaliyotlarini o'rganish va saralash; uchinchidan, mahalliy sug'urta kompaniyalarida ESG tamoyillarini tatbiq etish uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqish; to'rtinchidan, ESG tizimini joriy etish natijalarini baholash metodikasini ishlab chiqish. ESG tajribasini sug'urta kompaniyalariga moslashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni taklif etishdan iborat bo'lsa, amaliy ahamiyati esa ESG tizimini joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha real qo'llanma sifatida foydalanish imkoniyatida namoyon bo'ladi. ESG mezonlarini davlat-xususiy sheriklik, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonning aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro darajadagi raqobatga bardosh bera oladigan, mas'uliyatli va barqaror subyektlarga aylanishi mumkin. ESG bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga moslashtirish nafaqat ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy yutuqlar uchun ham zamin yaratadi. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari ESG bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalarni qo'llash orqali barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin. Milliy korxonalarda ESG tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish, milliy ESG reyting tizimini yaratish va xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etish orqali global moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengayadi va kompaniyalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini, investitsion jozibadorligini va ijtimoiy javobgarligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Global Reporting Initiative (GRI) Standards. <https://www.globalreporting.org>
2. World Economic Forum. ESG Metrics and Measurement. 2021.
3. KPMG. The Time Has Come: The KPMG Survey of Sustainability Reporting 2022.
4. PwC. ESG in Insurance: Insights and Best Practices. 2023.
5. UNEP FI. Principles for Sustainable Insurance. United Nations Environment Programme Finance Initiative. 2020.



6. Eccles, R., Ioannou, I., Serafeim, G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance. Harvard Business School, 2014.
7. OECD. Corporate Governance and the Insurance Sector. 2018.
8. Shamsiddinov, M. Korporativ boshqaruv va ijtimoiy mas'uliyat. Tashkent, 2020.